

## KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI TASHKIL ETISH

Ismatov Raxmatilla Oltinovich

Namangan muhandislik-qurilish instituti, i.f.n., dots

### Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonlarda innovatsion jarayonlarni rivojlantirish, salohiyatni oshirish va ularni samarali boshqarish, kichik biznesda innovatsion tadbirkorlikni tashkil etish bosqichlari, innovatsion g'oyalarni shakllantirish va uni amaliyotga joriy etish bilan bog'liq jarayonlar tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion tadbirkorlik, innovatsion salohiyat, innovatsion rivojlanish, tadbirkorlik g'oyasi, kutilmagan yutuq, demografik o'zgarishlar, innovatsion loyiha.

### Аннотация

В статье изучены процессы, связанные с развитием инновационных процессов в нашей стране, формированием потенциала и их эффективным управлением, этапы организации инновационного предпринимательства в сфере малого бизнеса, формирования инновационных идей и их реализации.

**Ключевые слова:** инновация, инновационная деятельность, инновационное предпринимательство, инновационный авторитет, инновационное развитие, предпринимательская идея, неожиданное достижение, демографические изменения, инновационный проект.

### Annotation

In the article, the processes related to the development of innovative processes in our country, capacity building and their effective management, the stages of organizing innovative entrepreneurship in small business, the formation of innovative ideas and their implementation are studied.

**Key words:** innovation, innovative activity, innovative entrepreneurship, innovative authority, innovative development, entrepreneurial idea, unexpected achievement, demographic changes, innovative project.

### KIRISH

O'zbekistonda iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida rivojlanish, iqtisodiy mustaqillik, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o'z-o'zidan takomillashib borishga qodirligini ta'minlovchi shart-sharoitlarning yaratilgan. Bunda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarining o'рни beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o'rinlari yaratib, nafaqat o'zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so'nggi yutuqlariga asoslangan texnika va

asbob-uskunalarini mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo'lishi shart"[1] deb ta'kidlaydilar.

Hozirgi kunda va yaqin kelajakda innovatsion rivojlanish sohasida hal etilishi zarur bo'lgan quyidagi asosiy muammolar saqlanib qolmoqda: "... ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni davlat-xususiy sheriklikda moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va hajmini oshirish, xalqaro moliya tashkilotlari va jamg'armalari mablag'larini jalb qilish hamda tadbirkorlikka zarur ko'nikmalarni texnoparklar, innovatsion markazlar va yoshlar texnoparklari orqali kichik va innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashni talab etmoqda."[2]

### ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsiya – bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko'rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish.

Iqtisodiy adabiyotlarda "innovatsiya" tushunchasiga ta'rif berish uchun turli xil yondashuvlar paydo bo'la boshladi. E.A. Utkinning yondashuviga ko'ra, innovatsiya deganda "ishlab chiqarishga joriy etilgan obyekt tushuniladi"[3]. I. Stepanovanning fikriga ko'ra, "innovatsiya" tushunchasi ilmiy-texnika salohiyatini real, yangi mahsulot va texnologiyalarni yuzaga chiqaradigan jarayon sifatida talqin etiladi[4].

O'zbekistonda innovatsiya faoliyatini rivojlantirish va boshqaruv tizimini o'rganish bo'yicha A.M. Qodirov[5], SH.N. Zaynutdinov[6], N.M. Rasulov[7] va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar.

"Innovatsiya" tushunchasining yuqoridagi ta'riflari o'zgarishlarning mikroiqtisodiy xususiyatini aks ettiradi va bu yerda ular tashkilot faoliyatini modernizatsiyalash omili sifatida ko'rib chiqilgan

Shunday qilib, "innovatsiya" tushunchasi ko'pincha u yoki bu tadqiqotchining aniq maqsadi bilan belgilanadi. Har qanday yangilik, shu jumladan juda ilg'or bo'lmasa ham, innovatsiya sifatida tavsiflanishi mumkin.

### METODOLOGIYA


Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning korxonalarini innovatsion salohiyatini oshirish bo'yicha izlanishlari, olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda ma'lumotlarni tizimlash bo'yicha maxsus yondashuvlar, ya'ni taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion tadbirkorlik – bir paytning o'zida ham iqtisodiy holat, ham jarayondir. Iqtisodiy holat sifatida tadbirkorlik iste'molchilarga ma'lum tavsiflarni (ish xizmat), zarur natijani olish bo'yicha ishlab chiqarish va sotish, ishlab chiqarish

munosabatlarning shakli sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy holat sifatida tovar (ish, xizmat) sotish jarayonida iste'molchilar bilan, mahsulot yetkazib beruvchilar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar, yollangan ishchilar va nihoyat, davlat va boshqa boshqaruv tashkilotlari bilan o'zaro muomalada yuzaga keladigan munosabatlarning barcha tizimini o'zida aks ettiradi.

Innovatsion tadbirkorlik tadbirkorlikning alohida turi bo'lganligi sababli, uning uchun bu to'rt bosqichni yanada bo'laklarga bo'lish lozim (1-rasm). Shuni ta'kidlash lozimki, sanab o'tilgan bosqichlar doim ham ketma-ketlikda amalga oshirilmaydi, ayrim bosqichlar ko'pincha parallel ravishda amalga oshiriladi va bu innovatsion faoliyat jarayonini tezlashtiradi. Darhaqiqat, biznes-rejani ishlab chiqish bilan birga g'oyalar tanlanadi va baholanadi, shu vaqtning o'zida yaratilayotgan innovatsion tashkilot davlat ro'yxatidan o'tkazilishi va patent olish uchun talabnoma berilishi mumkin. Innovatsion tadbirkorlik uchun yangi g'oyalarni izlash va yaratilayotgan intellektual mahsulotni himoya qilish kabi bosqichlari aynan muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Innovatsion tadbirkorlik bosqichlari<sup>1</sup>

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish har doim qandaydir aniq g'oyalarga asoslanadi. Faollik va jur'atga asoslangan tadbirkorlik g'oyasi, shaxsan tadbirkorning innovatsion tashabbusi har bir qismigacha puxta o'ylangan bo'lib, nafaqat ishlab chiqarish jarayonini butunlay qamrab oladi, balki uning bir yoki bir necha alohida qismlarini ham qamrab olishi mumkin.

Lekin tadbirkorlik firmasining innovatsion faoliyat xarakteri nafaqat ishlab chiqarish omillariga nisbatan, ishlab chiqarish jarayoni o'zini tashkil etish yoki mahsulotning o'zida namoyon bo'lmay, balki ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etayotgan odamlar faoliyatini tashkil etishga nisbatan ham namoyon bo'lishi mumkin. Bu hollarda tadbirkorlik g'oyasi quyidagi harakatlarda asoslanishi mumkin:

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

- “Malakasi yetarli bo‘lmagan ishchilarni bo‘shatish” maqsadida ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchilarni qisman yoki butunlay almashtirish;
- Ushbu maqsadlarga jalb etish shartlari va manfaatlari hisobiga ishlaydigan jamoada “o‘ziga xos ruhiyat”ni yaratish;
- Har bir ishchi tomonidan o‘z ish vaqtidan unumli foydalanish choralarini qabul qilish va h.k.

Shunday qilib, innovatsion g‘oyani noyob mahsulot, tovar, xizmat yoki ularning yaxshilangan variantlari, yoki modifikasiyalarini, shuningdek, yangi nusxalarini ishlab chiqarish kabi real mavjud imkoniyat deb belgilashimiz mumkin. Tadbirkor o‘zi uchun, shuningdek, unga qandaydir ma‘lum innovatsion g‘oyani topishga ko‘mak beruvchi axborot manbalarini alohida ajratishi muhim hisoblanadi. Bunday manbalar bozor va bozor ehtiyojlari haqida aniq bilimlar, yangi texnologiya, materiallar, ishlab chiqarish uslublarining paydo bo‘lishi, ta‘minotdagi ma‘lum mahsulotga ehtiyojning tarkibiy yoki geografik uzilishlari, innovatsion g‘oyalarning aniq manbalari sifatida namoyon bo‘lishi mumkin:

- Iste‘molchilar, ya‘ni iste‘mol talabini o‘rganish;
- Mahsulot, xizmatning takomillashtirilgan yoki noyob variantlarini yaratishga imkon beruvchi, yangi material, tovar xususiyatlari yoki ixtirochilik bilan mashg‘ul bo‘lgan olimlar;
- Raqobatchilar, ayrim hollarda iste‘mol talabini o‘rganishga qaratilgan ularning faoliyati, tadbirkorni o‘zining shaxsiy innovatsion g‘oyasini shakllantirishga turtki bo‘lishi;
- Savdo agentlari, dilerlar va boshqa vositalar;
- Innovatsion faoliyatning ma‘lum elementlari bo‘yicha tadbirkorning maslahatchilari;
- Bevosita tashkilotning ishchilari.

Ayrim firmalarda innovatsion g‘oyalar manbai sifatida aynan korxona xodimlaridan faol foydalanadilar, buning uchun yangi tovarlarni ishlab chiqarish bo‘yicha rag‘batlantirishning alohida usullarini qo‘llaydilar. Innovatsion g‘oyalar manbalarini ko‘rsatishda yetti manba namoyon etiladi:

1. Kutilmagan hodisa (tashkilot yoki tarmoq uchun – kutilmagan muvaffaqiyat, kutilmagan muvaffaqiyatsizlik, kutilmagan tashqi hodisa);
2. Nokongruentlik – reallik o‘rtasida nomuvofiqlik, haqiqatda qanday bo‘lsa, u haqidagi tasavvurimiz (shunday, qanday bo‘lishi kerak bo‘lganganday);
3. Jarayon ehtiyojlariga asoslangan yangiliklar kiritish (jarayon ehtiyojlarida uning kamchiliklari va “salbiy joylari” nazarda tutilib, ular bartaraf etilishi mumkin va shart);
4. Bozor yoki soha tarkibidagi keskin o‘zgarishlar;
5. Demografik o‘zgarishlar;
6. Qabul qilish, kayfiyat va qimmatli ko‘rsatmalarda o‘zgarishlar;
7. Yangi bilimlar.

Birinchi to‘rt manba korxona ichida bo‘lib, sanoat tarmoqlari yoki xizmat ko‘rsatish sohasi tasarrufida bo‘lganligi sababli ichki manbalarga kiradi, shu sababli

ushbu korxona yoki tarmoqda ishlovchi odamlar uchun foydalanish imkoniyatiga ega. Yangilik kiritishning qolgan uch manbai tashqi hisoblanadi, chunki korxona yoki tarmoq tashqarisida joylashgan mazkur korxona harakati natijasida yuzaga kelgan. Ammo ushbu yetti innovatsion g'oya orasidagi chegara muqim emas va o'zaro almashinishi mumkin.

Kutilmagan yutuq, innovasiyaning imkoniyatini ko'rsatibgina qolmay, balki uni talab etadi, chunki kutilmagan yutuq rahbariyat qarashlarining cheklanganligini, iqtisodiy reallik bilan uni uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Tashqi muhitdagi boshqa kutilmagan hodisalarga ham e'tibor qaratish lozim, masalan, raqobatchilarning kutilmagan yutug'i yoki muvaffaqiyatsizligi. Bu manba ayniqsa yirik va yetuk kompaniyalar uchun muhimdir, chunki ularda umumiy ko'rinish yaxshi namoyon bo'ladi va ular uchun ko'proq manbalarni jalb etish imkoniyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Navbatdagi manba – nokongruentlik. Nomo'tadillik yaratuvchi reallikda namoyish etilgan vosita, uning yordami bilan hatto kichik bir intilish ham butun iqtisodiy mexanizmni harakatga keltirishi mumkin. Bunday nokongruentlik yangilik kiritishdan oldin turadi. Ammo uni ajratib ko'rsatish ancha mushkul, chunki u miqdoriydan ko'ra sifat tavsifiga ko'proq ega bo'ladi.

Yangilik kiritishga imkon beruvchi vazifa bu: tashkilotdagi har kim zaif bo'g'in mavjudligini biladi, lekin hech kim chora ko'rmaydi. Lekin, yangilik kiritilishi bilan u ma'lum narsa kabi qabul qilinadi va tezda me'yorga aylanadi. Bu manbani ishlatishdagi muhim daqiqa, aytilayotgan ehtiyojni qondirish uchun yangi bilimlar olish zaruriyatidir[8].

Innovatsion g'oyalarning eng muhim manbalaridan biri – demografik o'zgarishlardir (aholi tarkibidagi, jins va yosh tizimidagi, ish bilan bandligi, ma'lumot darajasidagi daromadi). Ushbu o'zgarishlarning muhimligi, ularni hisobga olish zaruriyati tan olingan, lekin, shu bilan birga, ushbu o'zgarishlarni kundalik ish amaliyotida hisobga olish muhim emas, degan qat'iy fikr ham mavjud. Demografik o'zgarishlarni oldindan bashorat qilib bo'lmalik mumkin, ammo ularni idrok etish va ularni qo'llash orasidagi muddat ancha katta, bu esa ularni nazarda tutish lozimligini taqozo etadi. Ular aynan kundalik ish amaliyotida hisobga olinmaganligi bilan innovatsion tadbirkorlik uchun muhimdir.

Yangilik yoki ixtironi kashf etish va uni ishlab chiqarishdan amaliy texnologiya darajasigacha hamda bozor tomonidan o'zlashtirilishigacha bo'lgan vaqtdagi tafovut taxminan 20–25 yilni tashkil etadi. Bu uzilish yangi bilimlarga asoslangan yangiliklar kiritilishiga oid. Bunday yangiliklar kiritilishining alohida belgilari, shuningdek, bir necha yangi g'oyalarning birlashuvi bo'lib, bunda ulardan ayrimlari ilmiy tadqiqot natijasi bo'lmisligi ham mumkin. Nihoyat, yangi bilimlarga asoslangan yangiliklar boshqa asosiylari bilan birgalikda tavakkallikning yanada katta ulushini olib boradi. Innovatsion g'oya manbalarini muntazam nazorat qiluvchi tizimga yangi bilimlarning integrasiyalashuvi va innovatsion boshqaruvni tizimli qo'llash yangilik kiritish jarayonini yanada muvaffaqiyatli qilishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion g'oyalar shakllantirilganidan so'ng tadbirkor kelgusidagi ustuvor g'oyalarni tanlab oladi. Bunda u nafaqat ushbu loyihaning zarurligini, balki uning amalga oshishi qanchalik aniq ekanligini ham hisobga olishi kerak, chunki mablag', zarur malaka bo'lmasa yoki hal qilib bo'lmaydigan to'siqlar yuzaga kelsa, yaxshi innovatsion g'oya ham amalga oshmasligi mumkin. Shuning uchun tadbirkorlik firmasi biron innovatsiyani tatbiq qilishidan oldin, birinchidan, biror mahsulot bozorda yaxshi imkoniyatga ega yoki ega emasligini aniqlashi lozim (agar gap mahsulot innovatsiyasi haqida borsa), ikkinchidan, innovatsion g'oya bilan bog'liq so'nggi qarorni qabul qilishda, shuningdek, konstruktor-tadqiqodchilik ishlari bilan bog'liq ishlarda quyidagilarni nazarda tutishi lozim.

Bundan tashqari, hatto ilg'or g'oya ham o'z-o'zidan ijodkor korxonaga bozorda avtomatik ravishda yutuqqa ega bo'lishiga kafolat bermaydi. Ko'zlangan maqsadga va innovatsion faoliyatdan monopol yuqori foydaga erishish uchun tadbirkorlik firmasi ayrim shartlarga rioya qilishi va aniq talablarga javob berishi kerak:

1. Salohiyatli iste'molchilarning yangilikka bo'lgan ehtiyoji hajmini, mazkur ehtiyojni qondirishning ma'lum usullarida iqtisodiy ustuvorlikni aniqlab olishi lozim. Bundan tashqari, yangilik kiritish, ishlab chiqarish va yaratishda yuzaga keladigan manbalar chegarasini aniqlash lozim, ya'ni yangilikning iqtisodiy salohiyatining har tomonlama bashoratini to'g'ri tashkil etish lozim.

2. Innovatsion tashkilotning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun korxona xodimlarining ayrim talablarga mosligi asosiy shart hisoblanadi. Firma tashkilotchilarining yoshi (o'rtacha 30–35 yosh) va ularning shaxsiy xususiyatlari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

3. Moddiy-moliyaviy resurslarning cheklanganligida va bozorga moslashmaganlikda innovatsion korxonalarning muvaffaqiyatida boshqaruvni tashkil qilish sifati muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun aynan kichik innovatsion tashkilotlar yanada samaralidir. Chunki resurslarni kam ishlatish bilan ham natijaga erishish mumkin bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Internet manba: "prezident.uz". 22 yanvar 2018 yil.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi PF-165-sonli Farmoni "2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida".

3. Utkin E.A. **Upravlenie kompaniyami**. Moskva, 1997. - 304 b.

4. Stepanova I.P. **Innovatsionnyy menedzhment**. Uchebnik. Moskva, 2014.

5. Qodirov A.M. **Formirovaniye natsional'noy innovatsionnoy sistemy v usloviyakh uglubleniya ekonomicheskikh reform**. Axtual'nye problemy razvitiya innovatsionnoy deyatelnosti. Sbornik nauchnykh trudov mezhdunarodnoy konferentsii. - T.: 2008. S. 19-21.

6. Zaynutdinov Sh.N. **Innovatsionnyy menedzhment**. - T.: Akademiya, 2006. - S. 267.
7. Rasulov N.M., Zaynutdinov Sh.N. **Innovatsion menedzhment**. Darstlik. - T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020 yil. 540 b.
8. Ismatov R.O. **Innovatsion menedzhment va tadbirkorlik** / o‘quv qo‘llanma. T.: “Fan ziyosi”, 2024 yil. 293 b.